



**Transchegaraviy suv resurslari: O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari
o‘rtasidagi huquqiy muammolar va ularning yechimlari**

Tangirqulov Muzaffar Doniyor o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Tabiiy resurslar huquqi” yo‘nalishi

magistratura bosqich talabasi

muzaffartsul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan transchegaraviy suv resurslariga oid huquqiy muammolar tahlil qilinadi. Amudaryo va Sirdaryo kabi daryolardan foydalanishda yuzaga kelayotgan ziddiyatlar, xalqaro huquq normalari va mintaqaviy shartnomalar asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada mavjud huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar beriladi hamda samarali mintaqaviy hamkorlik yo‘llari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: transchegaraviy suvlar, O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, huquqiy muammolar, xalqaro huquq, suv siyosati, mintaqaviy hamkorlik.

Аннотация: В статье рассматриваются правовые аспекты использования трансграничных водных ресурсов между Узбекистаном и странами Центральной Азии. Анализируются текущие противоречия в распределении воды, особенно в бассейнах Амударьи и Сырдарьи, а также международные правовые нормы и соглашения. Автор предлагает возможные правовые механизмы и пути усиления регионального водного сотрудничества.



Ключевые слова: трансграничные воды, Узбекистан, Центральная Азия, правовые проблемы, международное право, водная политика, региональное сотрудничество.

Abstract: This article explores the legal challenges related to the use of transboundary water resources between Uzbekistan and other Central Asian countries. It examines existing disputes over major rivers such as the Amu Darya and Syr Darya, along with relevant international legal frameworks and regional agreements. The paper also provides recommendations for addressing legal gaps and enhancing effective regional cooperation on water management.

Keywords: transboundary waters, Uzbekistan, Central Asia, legal challenges, international law, water policy, regional cooperation

Kirish. Bugungi kunda suv resurslari nafaqat tabiiy boylik sifatida, balki geosiyosiy va iqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida qaralmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida suv masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Bu holat mintaqadagi daryo havzalari – ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik transchegaraviy suv oqimlari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston geografik joylashuvi jihatidan suv manbalarining asosiy qismi boshqa davlatlarda shakllanadigan pastki havza davlatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, suv resurslaridan oqilona, adolatli va barqaror foydalanish masalasi mamlakat tashqi siyosatida alohida o‘rin egallaydi. Suvning chegara bilmas tabiati uni mintaqaviy hamkorlikning asosi sifatida namoyon etsa-da, amalda bu hamkorlik ko‘p hollarda huquqiy va siyosiy kelishmovchiliklar bilan murakkablashadi. Ayniqsa, suvdan foydalanish borasidagi xalqaro-huquqiy asoslarning mintaqa uchun yetarlicha moslashtirilmaganligi,



shuningdek, har bir davlatning ichki siyosati va manfaatlarining turlichaligi transchegaraviy suvlar bilan bog‘liq muammolarni chuqurlashtirmoqda.

Mazkur maqolada aynan ana shu ziddiyatli jihatlar yoritiladi: O‘zbekistonning suv resurslaridan foydalanishdagi huquqiy pozitsiyasi, mavjud xalqaro shartnomalar va ularning amaldagi natijadorligi, shuningdek, transchegaraviy suvlar bo‘yicha xalqaro tajribalar asosida mintaqaviy muammolarning huquqiy yechimlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari suv siyosatida barqarorlikka erishish va O‘zbekiston manfaatlarini xalqaro maydonda samarali himoya qilish uchun huquqiy asoslar yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Transchegaraviy suvlar bu ikki yoki undan ortiq davlatlar hududidan oqib o‘tuvchi yoki ularga bevosita ta’sir qiluvchi suv oqimlari, ko‘llar va yer osti suvlaridir. Ular odatda tabiiy geosiyosiy chegaralarni kesib o‘tadi va mintaqaviy hamkorlik yoki ziddiyatlarning markazida bo‘ladi. Ushbu suv resurslariga Amudaryo va Sirdaryo daryolari eng yaqqol misollardir. Har ikkisi ham bir necha Markaziy Osiyo davlatlari hududidan oqib o‘tadi, bu esa ularning suv siyosatini murakkablashtiradi¹. BMTning 1997-yildagi “Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llardan foydalanish va ularni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyasi”da transchegaraviy suvlar “xalqaro suvlar” deb yuritiladi va ulardan foydalanishning asosiy prinsiplari adolat, oqilonalik, zarar yetkazmaslik va muloqot tamoyillariga asoslanadi². Transchegaraviy suvlar masalasi, ayniqsa, suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalaning dolzarbligi shundan dalolat beradiki, 300 dan ortiq xalqaro daryo havzalari bugungi kunda 150 dan ortiq davlatlarning manfaatiga taalluqlidir. Shu sababli, transchegaraviy suvlar nafaqat tabiiy resurs, balki siyosiy va huquqiy kategoriyaga aylanmoqda. Shuningdek, suvdan bir tomonlama foydalanish yoki muvofiqlashtirilmagan qurilishlar (masalan, GESlar yoki suv

¹ UNESCO. (2009). *Water in a Changing World – The United Nations World Water Development Report 3*. Paris: UNESCO.

² United Nations. (1997). *Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses*. Retrieved from https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/8_3_1997.pdf



omborlari) boshqa mamlakatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa xalqaro suv huquqi doirasida bahs-munozaralarga olib keladi. O'zbekiston misolida, yuqori oqimda joylashgan Tojikiston va Qirg'izistondagi suv infratuzilmalari mamlakatga sug'orish mavsumida salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, transchegaraviy suvlarni boshqarish masalasi har tomonlama huquqiy yondashuv va ko'p tomonlama kelishuvlarni talab qiladi³.

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishlari Markaziy Osiyodagi muzliklar holatiga keskin ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Tojikistonda mavjud bo'lgan 8000 dan ortiq muzlik maydonining qariyb 30 foizi allaqachon erib ketgan bo'lsa, Qirg'izistonda bu ko'rsatkich 16 foizga yetgan. Eng xavotirli tomoni shundaki, mutaxassislar tomonidan 2030-yilga kelib ushbu muzliklarning yana 15–20 foizi yo'qolib ketishi taxmin qilinmoqda⁴. Bu esa mintaqada suv resurslariga bo'lgan bosimni kuchaytiradi. Shuningdek, suv tanqisligi holatlari tobora qisqa muddat ichida takrorlanmoqda. Ilgari suv kam bo'lgan yillar har 6–8 yilda kuzatilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu davr 3–4 yilgacha qisqargan. Bunday tendensiyalar, shubhasiz, nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo uchun suvdan foydalanish madaniyatini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Menimcha, har bir tomchi suvning qadriyan jihatdan, iqtisodiy va ekologik qiymati haqida jiddiy mulohaza yuritish vaqti keldi. Markaziy Osiyo davlatlari ichida suv resurslarining geosiyosiy taqsimoti ham muhim muammo sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda. Tog'li hududlarga ega Tojikiston va Qirg'iziston tabiiy suv manbalarining asosiy manbai sanaladi. Aksincha, Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston kabi davlatlar — cho'l va yarim cho'l zonalarida joylashgan — asosan shu qo'shni mamlakatlar suviga tayanishga majbur. Bu esa mintaqada hamkorlik asosida suv resurslarini adolatli va muvozanatli taqsimlashni zaruratga aylantiradi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ekspertlariga ko'ra qayta

³ Pohl, B. (2014). *Transboundary Water Cooperation in Central Asia: Regional Institutions and Domestic Obstacles*. Stuttgart: SWP Research Paper.

⁴ UNDP. (2022). *Climate Change and Glacier Retreat in Central Asia*. United Nations Development Programme.
<https://www.undp.org>



tiklanadigan suv resurslariga nisbatan eng yuqori iste'mol darajasi Yaqin Sharq davlatlariga xos bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat ham shunga yaqinlashib bormoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida suv sarfi haddan tashqari yuqori bo'lib qolmoqda. Bu holatni isrofkorlik va zamonaviy texnologiyalar yetishmovchiligi bilan bog'layman. Mintaqadagi barcha davlatlar suv resurslarini boshqarishda ko'proq koordinatsiya, ekologik mas'uliyat va zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda harakat qilmasa, kelajakda bu resurs atrofida jiddiy nizolar vujudga kelishi ehtimoli yuqori. Transchegaraviy daryolar ayni bir vaqtning o'zida bir nechta mamlakatlar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shu bois, transchegaraviy daryolar zahiralariidan birgalikda foydalanish qirg'oqbo'yi davlatlarning hamkorligini talab etadi, chunki daryolar faqat bir davlatgagina tegishli emas. Quyida berilgan jadvalda Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolar ro'yxati berilgan.

№	Daryolarning nomi	Uzunligi	Kesib o'tuvchi mamlakatlar	Daryolarning asosiy irmoqlari
1	Amudaryo	1415km	Tojikiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Turkmaniston	Kofirnigon, Vaxsh, Surxondaryo, Panj
2	Sirdaryo	2275 km	Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, O'zbekiston	Norin, Qoradaryo, Chirchiq
3	Zarafshon	877 km	Tojikiston, O'zbekiston	-
4	Chu	1067 km	Qirg'iziston, Qozog'iston	-
5	Talas	661 km	Qirg'iziston, Qozog'iston	Assa



6	Ili	1439 km	Xitoy, Qozog'iston	-
7	Murg'ob	978 km	Afg'oniston, Turkmaniston	Abuqaysar, Kushan, Kushka

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72- sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan suv bilan bog'liq muammolarga alohida to'xtalib, shunday degan edi: "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q." (O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi., 2017)

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida suv resurslarini boshqarish masalasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat iqtisodiy yoki texnik, balki huquqiy jihatdan ham muammolarga boy. Asosiy sabab – suvlar tabiiy ravishda chegaralarni kesib o'tadi, lekin ulardan foydalanish milliy siyosatlar bilan belgilanadi. Bu esa, suv resurslarining teng va adolatli taqsimlanishiga to'siq bo'layotgan asosiy muammolardan biridir. Ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida transchegaraviy suvlar bo'yicha kuchga ega yagona xalqaro huquqiy hujjat mavjud emas. Quyida jadvalda Transchegaraviy suv resurslariga doir xalqaro hujjatlar Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan yoki qilinmaganligi to'g'risida ma'lumotlar.



Davlat	1992-yilgi Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha konvensiya	1997-yilgi Xalqaro suv oqimlaridan navigatsiyasiz foydalanish huquqi to'g'risidagi konvensiya
Qozog'iston	2000-yilda ratifikatsiyalangan	Ratifikatsiyalanmagan
Qirg'iziston	ratifikatsiyalanmagan	Ratifikatsiyalanmagan
Tojikiston	ratifikatsiyalanmagan	Ratifikatsiyalanmagan
Turkmaniston	2012-yilda ratifikatsiyalangan	Ratifikatsiyalanmagan
O'zbekiston	2007-yilda ratifikatsiyalangan	2007-yilda ratifikatsiyalangan

Har bir mamlakat o'zining ichki siyosati va qonunchiligiga tayangan holda qarorlar qabul qilmoqda. Masalan, tog'li davlatlar (Tojikiston, Qirg'iziston) asosan gidroenergetik manfaatlardan kelib chiqsa, past oqimda joylashgan mamlakatlar (O'zbekiston, Qozog'iston) suvdan qishloq xo'jaligi va sug'orish maqsadlarida foydalanadi⁵.

Markaziy Osiyoning geografik jihatdan "yuqori" va "quyi" oqim davlatlariga bo'linishi.

	Davlat	Ustuvorlik	O'ziga xosligi	Aholisining umumiy soni
"Yuqori" oqim davlatlar	Qirg'iziston Tojikiston	elektr energiyasi ishlab chiqarish	Mintaqadagi suv zaxiralarining 80%dan	17 mlndan ortiq

⁵ FAO. (2023). *Water resources in Central Asia: Regional analysis*. Food and Agriculture Organization.



			ortig'i	
“Quyi” oqim davlatlar	Qozog‘iston Turkmaniston O‘zbekiston	yerlarni sug‘orish	Ulkan irrigatsiya imkoniyatlari	62 mlndan ortiq

Bu turli manfaatlar birgalikdagi yondashuvni talab qiladi. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining 1992-yildagi Helsinki konvensiyasi transchegaraviy suvlar bo‘yicha muhim tamoyillarni (masalan, zarar yetkazmaslik, adolatli foydalanish) belgilagan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyo davlatlari bu konvensiyaga to‘liq qo‘shilmagan. Ayrimlar bu hujjatga a‘zo bo‘lgan, ammo amalda bu konvensiya asosida mintaqaviy siyosat yuritilmayapti. Bu konvensiya mintaqaning iqlim, siyosiy va ijtimoiy o‘ziga xosliklarini yetarlicha hisobga olmaydi. Shu bois, Helsinki tamoyillarini mintaqaga moslashtirilgan holda qo‘llash mexanizmini ishlab chiqish zarur. Ba’zi hollarda davlatlar o‘rtasida tuzilgan bitimlar yoki anglashuv memorandumlari bor, ammo ularning aksariyati majburiy kuchga ega emas yoki nazorat qilish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa kelishuvlarning amalda ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Masalan, suvni nazorat qilish bo‘yicha mintaqaviy markazlar bor bo‘lsa-da, ular texnik jihatdan kuchli emas yoki siyosiy bosim ostida ishlamoqda. Xalqaro huquqda tan olingan tamoyillar – masalan, “birgalikda foydalanuv”, “zarar yetkazmaslik”, “o‘zaro maslahatlashuv” – har bir mamlakat tomonidan o‘z manfaatiga mos talqin qilinmoqda. Bu holat suv resurslarini adolatli boshqarishning yo‘liga to‘sqinlik qilmoqda. Masalan, yuqori oqimdagi davlat “suv bizniki, istaganimizcha foydalanamiz” degan pozitsiyani, past oqimdagilar esa “suv umumiy boylik” tamoyilini ilgari suradi. Suv masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlik bilan bevosita bog‘liq. Afsuski, mintaqada ekologik huquq normalari kam qo‘llaniladi. Transchegaraviy daryolarning ekologik holatini nazorat qilish bo‘yicha umumiy dastur yo‘q. Shu sababli, ayrim hollarda ekologik zarar yetkazuvchi siyosatlar muhokamasiz qolib ketmoqda.



Mintaqaviy miqyosda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish va ularni samarali boshqarishda **Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi (DSXMK)**ning o‘rni inkor qilib bo‘lmaydi. Uzoq yillar davomida bu tuzilma mamlakatlar o‘rtasida suv masalalarida muvozanatni saqlashga harakat qilib keldi. Shunga qaramay, bugungi kunda komissiya o‘z funksiyalarining aksariyatini to‘liq bajara olmayapti va amalda isloh qilish zarur bo‘lgan tizimga aylangan. Ko‘plab soha mutaxassislarining ta’kidlashicha, DSXMK tarkibidagi boshqaruv organlariga barcha a‘zo mamlakatlardan teng asosda vakillarni jalb etish imkoniyati yo‘qligi katta muammo bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, faqat suv xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi idoralargina emas, balki boshqa tegishli vazirlik va agentliklar ham komissiya ishida ishtirok etishi kerak. Biroq bu yo‘nalishda zarur vakolat va mexanizmlarning yetishmasligi sezilmoqda. Yana bir muhim masala transchegaraviy daryolarning suv oqimini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning bajarilishi. Afsuski, ayrim hollarda Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv-energetika resurslarini boshqarishda davlatlar o‘z zimmasidagi majburiyatlarni bajarmayapti. Bunday vaziyatda kelishmovchiliklarni bartaraf etishning aniq va samarali mexanizmlari mavjud emasligi DSXMKning eng jiddiy kamchiliklaridan biridir. Bugungi kunga kelib, Komissiya hatto mintaqada amalga oshirilayotgan yirik gidroenergetik loyihalarda ham faol ishtirok etmayapti. Bu holatdan shuni anglash mumkinki, a‘zo davlatlar suv xavfsizligi bilan bog‘liq dolzarb masalalarni DSXMK doirasida emas, balki ikki tomonlama yoki alohida platformalarda hal etishga urinmoqda. Bu esa komissiyaning amaliy ahamiyatini sezilarli darajada pasaytiradi. Shuningdek, 1992 va 2008-yillarda qabul qilingan “Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizomda ham bir qancha kamchiliklar mavjud bo‘lib, ularni ko‘rib chiqish va yangilash bugungi sharoitda dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Mazkur nizomda bir qancha kamchiliklar mavjud. Ular:



- muhokama etilayotgan qarorlar yuzasidan ta'sischi davlatlarning "veto" huquqini amalga oshirishning aniq mexanizmlarining yo'qligi;
- komissiya qarorlarining barcha suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilari tomonidan majburiy bajarilishini ta'minlash mexanizmlarining yo'qligi;
- "davlatlararo manba", "ratsional foydalanish" va boshqalar kabi asosiy tushunchalar ta'riflar bilan mustahkamlanmagan;
- ta'sischi davlatlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmi va shikoyatni ko'rib chiqadigan va qaror qabul qiladigan komissiya maxsus organi to'liq ishlab chiqilmagan;
- hech bir ta'sischi davlatning milliy tili tashkilotning ish yuritish tili sifatida belgilanmagan.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro suv huquqida transhegaraviy suvlardan foydalanish sohasidagi davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi 1992 va 1997-yillardagi ikkita asosiy konvensiya mavjud. Biroq bugungi kunga qadar, 1992-yilgi konvensiyani faqat Qozog'iston (2000-yil), O'zbekiston (2007-yil) va Turkmaniston (2012-yil), 1997-yilgi konvensiyani esa faqat O'zbekiston (2007-yil) imzolagan Xalqaro huquq deklarativ xarakterga ega bo'lishiga qaramay, Markaziy Osiyodagi suv muammosi misolida shuni aytish mumkinki, mintaqa davlatlari tomonidan 1992 va 1997-yillardagi asosiy konvensiyalarning umumiy tan olinishi, birgalikda suvdan samarali foydalanishni ta'minlash uchun zarur huquqiy asoslar yaratadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslaridan foydalanish borasida yuzaga kelayotgan murakkabliklarni tushunish uchun, eng avvalo, bu hududning geografik joylashuvi va davlatlar o'rtasidagi suv oqimining tabiiy xususiyatlariga nazar tashlash lozim. Aynan shu holat mintaqadagi davlatlarni ikki toifaga ajratishga asos bo'lgan: "yuqori oqimdagi" davlatlar – Qirg'iziston va Tojikiston hamda "quyi oqimdagi" davlatlar – Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmaniston. Bu taqsimot oddiy tasnif emas, balki mintaqaviy suv siyosatida chuqur ildiz otgan geosiyosiy omildir. "Yuqori oqim"



mamlakatlari o'zlarida mavjud tabiiy suv resurslarini, ayniqsa tog' daryolarini gidroenergetika maqsadlarida — ya'ni arzon elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun ishlatishga harakat qilmoqda. Aksincha, "quyi oqim"dagi mamlakatlar bu suvlarni, avvalo, qishloq xo'jaligi – xususan, sug'oriladigan dehqonchilikda foydalanishga ehtiyoj sezmoqda. Bu manfaatlar to'qnashuvi tabiiy hol, biroq mintaqadagi suv va energiyaga bog'liq siyosatni muvozanatlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Aks holda, har bir davlat o'z milliy manfaatlarini ustun qo'yib harakat qilsa, bu holat mintaqada suv resurslari ustidan keskinlikni kuchaytirishi, hatto regional xavfsizlikka tahdid tug'dirishi mumkin. Shu bois, hozirgi davrda davlatlar suvdan foydalanish bo'yicha o'zaro manfaatlarni tushunish va uyg'unlashtirishga intilishi nihoyatda muhim. Faqatgina resurslarni adolatli taqsimlash emas, balki bu taqsimotni siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish mintaqada tinchlik va hamkorlikning asosi bo'lishi mumkin.

Xulosa. Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi faoliyatini kuchaytirish va uni zamonaviy mintaqaviy ehtiyojlarga moslashtirish vaqti allaqachon yetib kelgan. Bugungi global va mintaqaviy vaziyatni inobatga olgan holda, ushbu komissiya nafaqat texnik jihatdagi koordinatsiyalarni amalga oshiruvchi, balki siyosiy masalalarda ham faol pozitsiyada bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, komissiya tuzilmasida tashqi ishlar vazirlari kengashini joriy etish taklif qilinadi. Bu kengash transchegaraviy suvlar bilan bog'liq murakkab siyosiy masalalarni diplomatik yo'l bilan muhokama qilish, muvozanatni saqlab turish va tomonlar o'rtasidagi ishonchni oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, komissiya faoliyatida shikoyatlar bo'yicha mustaqil qarorlar chiqarish va ularni bajarilishini monitoring qilish tizimi joriy etilishi lozim. Mening nazarimda, aynan shu elementlar komissiyani xalqaro miqyosda nufuzli va ta'sirchan mintaqaviy institutga aylantiradi. Shuningdek, tashkilotning vakolatlarini kengaytirish orqali Afg'oniston kabi transchegaraviy suvlar foydalanuvchisi bo'lgan, biroq rasmiy ravishda komissiya a'zosi bo'lmagan davlatlar bilan hamkorlik yo'llari aniq belgilanmog'i



zarur. Umuman olganda, komissiyani mintaqaviy investitsiyalarni jalb qila oladigan, siyosiy masalalarni diplomatik darajada hal qila oladigan va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi kompleks platformaga aylantirish, menimcha, eng muhim islohotlardan biri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. (2009). Water in a Changing World – The United Nations World Water Development Report 3. Paris: UNESCO;
2. United Nations. (1997). Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses. Retrieved from;
3. Pohl, B. (2014). Transboundary Water Cooperation in Central Asia: Regional Institutions and Domestic Obstacles. Stuttgart: SWP Research Paper;
4. UNDP. (2022). Climate Change and Glacier Retreat in Central Asia. United Nations Development Programme;
5. FAO. (2023). *Water resources in Central Asia: Regional analysis*. Food and Agriculture Organization.
6. Xolmuminov J. Suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishning ekologik-xuquqiy xolati/ Takrizchilar M.B.Usmonova, E.R. Xayitboev, I. Muminov nom. falsafa va huquq in-ti. T.: Falsafa va xukuk in-ti, 2008;
7. Yunusov X. Transchegaraviy daryolar va yirik to'g'onlar: tahdidlar, talafotlar va xavfsizlik choralari, 3. Mamatova. T.: Yangi asr avlodi, 2015. -268 b.
8. Скрипников Н.К. Трансграничное водопользование в Центральной Азии: (правовой аспект) Скрипников Н.К. Т.: ТДЮИ, 2004.